



HUDUDLARGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR

CURRENT PROBLEMS IN ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS TO THE REGIONS

¹Saidov Rasul
Boltabayevich,

²Jo'rabekova Xumora
Muzaffar qizi

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, i.f.n.,

G-mail: rasulbek_saidov@gmail.com ORCID: 0000-0003-0408-7409,

²Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi,

G-mail: jurabekovaxumora@gmail.com ORCID: 0009-0006-4384-298X.

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur maqolada O'zbekiston hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etishdagi mavjud tizimli muammolar tahlil qilingan. Tahlilda infratuzilma yetishmovchiligi, byurokratik to'siqlar, yuridik barqarorlikning pastligi, hududlararo tafovutlar va investitsiya muhiti barqarorligini ta'minlashdagi muammolarga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, xorijiy investorlarning huquqiy himoyasi, soliq imtiyozlarining yetarililigi va erkin iqtisodiy zonalaridagi samaradorlik darajasi kabi mezonlar asosida tanqidiy tahlil olib borilgan. Maqola yakunida xorijiy investitsiyalarni samarali jalb etish bo'yicha kompleks tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Eng. - This article analyzes the existing challenges in attracting foreign investments to the regions of Uzbekistan. The study focuses on infrastructure deficiencies, bureaucratic obstacles, weak legal stability, regional disparities, and institutional inefficiencies. Particular attention is paid to the legal protection of foreign investors, the sufficiency of tax incentives, and the performance of free economic zones. Based on the analysis, comprehensive recommendations are proposed to enhance the effectiveness of foreign direct investment (FDI) at the regional level.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *xorijiy investitsiyalar, hududiy rivojlanish, investitsiya muhiti, iqtisodiy zona, yuridik kafolat, infratuzilma, investor huquqlari.*

❖ *foreign investment, regional development, investment climate, free economic zone, legal guarantees, infrastructure, investor rights.*

Kirish.

Bozor munosabatlari chuqurlashgan hozirgi davrda xorijiy investitsiyalar har bir mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va texnologik yangilanishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan 2017-2025-yillarda xorijiy sarmoyalarni jalb qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Biroq, investitsion salohiyat

yuqori bo'lgan ayrim hududlarda bu jarayon kutilgan samarani bermayotgani kuzatilmoqda.

Xorijiy investorlar uchun qulay huquqiy, fiskal va infratuzilmaviy muhit yaratilishiga qaramay, joylardagi amaliyotda qator tizimli muammolar mavjud. Ular orasida yer ajratishdagi shaffoflik yetishmovchiligi, soliq va bojxona tartib-taomillarining murakkabligi, mahalliy hokimiyatlar bilan kelishuvdagi to'siqlar alohida o'rin tutadi. Natijada, yirik va strategik investitsiya loyihalarining ayrim

hududlarda sekinlashuvi yoki bekor qilinishi holatlari uchramoqda.

Ushbu maqolada aynan shu muammolarning mazmun-mohiyati ochib berilib, ularning yuzaga kelish sabablari, mavjud holatga ta'siri va yechimga qaratilgan takliflar tahlil qilinadi. Maqsad – xorijiy investitsiyalarni mamlakatimiz hududlariga samarali va barqaror jalb qilish imkoniyatlarini chuqur tahlil etish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

O'zbekiston hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalasi respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasida muhim o'rin tutadi. Mavzuga oid o'zbek tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan izlanishlarda xorijiy investitsiya oqimiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, mavjud muammolar va hududlararo tafovutlar chuqur tahlil etilgan. Jumladan, M. Shodmonov hududiy investitsion muhitni baholashda erkin iqtisodiy zonalar, maxsus soliq rejimlari va yer ajratish mexanizmlarining samaradorligini o'rgangan. U o'z izlanishlarida Toshkent, Buxoro va Navoiy viloyatlarida yuqori investitsion faollik, boshqa chekka hududlarda esa sustlik kuzatilishini asosli raqamlar bilan ko'rsatib bergan [4].

I. Karimov tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa xorijiy investorlar uchun yaratilgan huquqiy va institutsional kafolatlar, ayniqsa investitsiya shartnomalarining ijrosi va sud-huquqiy himoyaning ta'minlanishi, asosiy muammolar sirasiga kiritilgan. U davlat tomonidan yaratilgan imtiyozlar amaliyotda to'liq ishlamasligi, ayrim hollarda yer ajratish va litsenziyalash jarayonlarida byurokratik to'siqlarning mavjudligini alohida ta'kidlaydi [3].

B. Xudoyberdiyev va N. To'xtayev kabi olimlar esa investitsion siyosatni hududiy boshqarish masalalariga e'tibor qaratib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida xorijiy investitsiya jalb etishning pastligi sabablari sifatida

infratuzilma yetishmovchiligi, mahalliy kadrlar salohiyatining zaifligi va axborot tizimlarining rivojlanmaganligini ko'rsatib o'tgan. Ular tomonidan ilgari surilgan tavsiyalar xorijiy investorlar uchun soddalashtirilgan ma'muriy tartiblar va axborot platformalarini yaratishni o'z ichiga oladi [5].

Umuman olganda, o'zbek olimlari tomonidan xorijiy investitsiyalarni hududlarga jalb etishdagi muammolar ko'p qirrali yondashuv orqali o'rganilgan. Ularning izlanishlari asosida ushbu muammolarning huquqiy, institutsional, iqtisodiy va boshqaruv omillariga bog'liqligi aniqlangan va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda asosiy ma'lumotlar O'zbekiston hududlariga oid investitsiya oqimlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hisobotlari hamda joylardagi hokimliklarning ochiq ma'lumotlaridan olindi. Ma'lumotlar tahlilida taqqoslama tahlil, kontent tahlili va hududlararo solishtirma baholash usullari qo'llanildi.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Xorijiy investitsiyalarni mamlakatimiz hududlariga jalb qilish dolzarb iqtisodiy va siyosiy muammolardan biri hisoblanadi. Global miqyosda investitsiyalarni jalb etishda hududiy raqobatning kuchayib borayotganini inobatga olgan holda, O'zbekiston hududlari uchun xorijiy sarmoyalarni samarali jalb etish – mahalliy iqtisodiyotlarni diversifikatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish, texnologiyalarni joriy etish va infratuzilmalarni modernizatsiya qilishning asosiy omili bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, mavjud investitsion muhitdagi tizimli muammolar xorijiy kapital oqimini sekinlashtirayotgani kuzatilmoqda. Ushbu bo'limda O'zbekistonning turli hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi amaliy

holat, muammolar va ularning ilmiy tahlili yoritiladi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023–2024-yillar davomida xorijiy investitsiyalarning katta qismi Toshkent shahri, Navoiy va Buxoro viloyatlariga yo'naltirilgan bo'lsa, Surxondaryo,

Qashqadaryo, Sirdaryo kabi hududlarda bu ko'rsatkich sezilarli darajada past bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga tayanilsa, 2024-yilda xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning 47 % dan ortig'i poytaxt va unga tutash iqtisodiy zonalarda to'plangan.



1-rasm. 2024-yilda O'zbekiston hududlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar taqsimoti (foizda)

Bu esa hududlararo investitsion nomutanosiblik mavjudligini ochiq namoyon etadi. Jumladan, Navoiy erkin iqtisodiy zonasiga kiritilgan infratuzilma loyihalari va soliq imtiyozlari xorijiy investorlar uchun ancha jozibador bo'lgan. Aksincha, vodiy viloyatlarida (Andijon, Namangan, Farg'ona) mavjud logistika va yer resurslariga qaramay, ko'plab loyihalar byurokratik to'siqlar sababli amalga oshmay qolgan.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, xorijiy investorlar uchun eng muhim mezonlardan biri – huquqiy barqarorlik va shaffoflikdir. Hozirgi kunda investitsiya shartnomalarining bajarilishini ta'minlash, sud-huquqiy himoyaning yetarli darajada kafolatlanmasligi, ayniqsa mintaqaviy hokimiyatlar bilan kelishuvdagi noaniqliklar xorijiy investorlar orasida ishonchsizlikni keltirib chiqarmoqda. 2022-yilda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda xorijiy investorlarning 38 foizi joylarda

ruxsatnoma, yer ajratish va litsenziyalash jarayonlarida ortiqcha byurokratiya mavjudligini tan olgan. Bu esa nafaqat investitsiyalarni kechiktiradi, balki ayrim hollarda ularning bekor qilinishiga olib keladi.

Hududiy infratuzilmaning rivojlanmaganligi ham salmoqli muammo bo'lib qolmoqda. Jumladan, elektr energiyasi va transport infratuzilmasi bilan bog'liq cheklovlar, sanoat zonalarida muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarining to'liq shakllanmaganligi xorijiy investorlar uchun qo'shimcha xarajatlar va xavflar keltirib chiqaradi. Surxondaryo viloyatida amalga oshirilgan tahlil natijalariga ko'ra, chet ellik sarmoyadorlar uchun asosiy to'siqlardan biri bu energetika ta'minoti va xalqaro yuk tashish yo'llarining zaifligi hisoblangan. Bundan tashqari, yer ajratish jarayonida yagona elektron platfomaning mavjud emasligi aniqlangan. Hozirda O'zbekistonning faqat 6 ta viloyatida maxsus iqtisodiy zonalar to'liq

faoliyat yuritmoqda, qolganlarida esa qonunchilikdagi noaniqliklar va mahalliy boshqaruv organlari yetishmovchiligi sababli investitsion loyihalar sust rivojlanmoqda.

Xalqaro tajriba bilan taqqoslaganda, O'zbekistonda hududlararo investitsion muvozanatni ta'minlash borasida hali ayrim muammolar mavjud. Masalan, Malayziya va Polshada investitsion hududiy rejalashtirish davlat strategiyasining ajralmas qismi sifatida yo'lga qo'yilgan. Ular xorijiy sarmoyalarni faqat yirik shaharlar emas, balki chekka mintaqalarga ham jalb qilish maqsadida maxsus hududiy klasterlar, zamonaviy infratuzilmalar va soliq-sug'urta imtiyozlarini joriy qilgan. Aksincha, O'zbekistonda ayrim hollarda mahalliy hokimiyatlar o'z investitsion dasturlarini umumiy milliy strategiyadan chetda ishlab chiqmoqda, bu esa resurslarning samarasiz taqsimlanishiga olib kelmoqda. Shu sababli, xorijiy investitsiyalar oqimi ayrim viloyatlar atrofida to'planib qolmoqda, qolgan hududlar esa iqtisodiy sust rivojlanishga duch kelmoqda.

Shuningdek, xorijiy investorlarning huquqiy himoyasini ta'minlashda ham qator muammolar mavjud. Ba'zi hollarda investitsiya shartnomalari bo'yicha nizolar mahalliy sudlarda ko'rib chiqilib, sarmoyadorlar halollikka ishonmaslik holatlarini bildirgan. Jahon bankining "Doing Business" indeksida 2020-yilda O'zbekistonning investorlarni himoya qilish ko'rsatkichi 65,0 ball bilan baholangan, bu esa o'rtacha global ko'rsatkichdan pastdir. Bu borada xalqaro arbitraj mexanizmlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish va mahalliy sud tizimini mustaqil ishlashiga sharoit yaratish zarurati bor.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda investitsiyalarni rag'batlantirishga doir qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan: O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonun [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga

mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni[2] va Vazirlar Mahkamasining 2023–2025-yillar investitsiya dasturlari bu borada normativ asos bo'lib xizmat qilmoqda. Biroq ushbu hujjatlarning mintaqaviy amaliyotda to'liq bajarilishi hozircha barcha hududlarda ta'minlanmagan.

Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, xorijiy investitsiyalarni mamlakat hududlariga samarali jalb qilish uchun tizimli yondashuv zarur. Bu birinchi navbatda mintaqaviy investitsion siyosatni yagona davlat strategiyasiga muvofiqlashtirish, ikkinchidan, infratuzilma loyihalarini xususiy sektor ishtirokida amalga oshirish, uchinchi esa – raqamli platformalar orqali yer ajratish, soliqqa oid ma'lumotlar va litsenziyalash tizimining shaffofligini ta'minlash bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, raqamli davlat xizmatlari (masalan, "Single Window" tizimi) orqali investorlar uchun barcha kerakli hujjatlar, ruxsatnomalar va soliq hisobotlarini olishni soddalashtirish amaliy mexanizm sifatida kutilgan samarani berishi mumkin.

Natijaviy jihatdan, tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning barcha hududlari xorijiy investitsiyalarni jalb qilish salohiyatiga ega bo'lsa-da, mavjud tizimli va institutsional cheklovlar sababli bu imkoniyat to'liq amalga oshmayapti. Yirik iqtisodiy zonalar va markaziy hududlar sarmoyadorlar uchun afzal bo'lib qolmoqda, chekka viloyatlar esa iqtisodiy rivojlanishda orqada qolmoqda. Mavjud muammolarga yechim sifatida investitsion muhitni hududlar kesimida chuqur diagnostika qilish, individual strategiyalar ishlab chiqish va xorijiy investorlar uchun kafolatlangan yondashuv mexanizmlarini shakllantirish lozim.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston hududlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, respublika sarmoyaviy salohiyati yuqori bo'lishiga

qaramay, mavjud institutsional va infratuzilmaviy cheklovlar bu imkoniyatdan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Hududlar o'rtasidagi investitsion faollik keskin farqlanmoqda: poytaxt va iqtisodiy jihatdan rivojlangan zonalarda sarmoya oqimi yuqori bo'lsa, chekka viloyatlar investorlar e'tiboridan chetda qolmoqda. Shuningdek, yer ajratish va ruxsat beruvchi hujjatlar bo'yicha byurokratik to'siqlar, shaffoflik yetishmasligi, huquqiy muhofaza mexanizmlarining zaifligi xorijiy sarmoyadorlarning ishonch darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Investitsion siyosatni hududiy rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtirish, hududlarga individual yondashuv asosida infratuzilma va xizmatlar paketini shakllantirish, shuningdek, investorlarga xizmat ko'rsatishning raqamli va soddalashtirilgan formatlarini joriy etish zarur. Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini kompleks baholash, ularni isloh qilish va investitsiyalarni diversifikatsiyalash maqsadida yangi sohalarga yo'naltirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Xorijiy investitsiyalarni hududlararo muvozanatda taqsimlash uchun individual hududiy investitsiya strategiyalarini ishlab chiqish va ularni milliy siyosat bilan uyg'unlashtirish;

2. Yer ajratish, litsenziyalash, bojxona va soliq xizmatlarini "yagona oynali" raqamli platformaga integratsiyalash orqali byurokratik to'siqlarni kamaytirish;

3. Sud-huquqiy himoya tizimini xorijiy investorlar ishonchini oshirishga xizmat qiladigan tarzda mustahkamlash, xalqaro arbitraj mexanizmlariga keng kirish imkonini yaratish;

4. Kam rivojlangan hududlarga nisbatan alohida soliq, kredit va kafolat mexanizmlarini ishlab chiqish;

5. Mahalliy hokimiyatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasida sheriklikni mustahkamlash orqali mintaqaviy infratuzilma loyihalarini qo'llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-sonli Qonun: <https://lex.uz/uz/docs/-4664142>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. Karimov, I. (2022). Hududiy investitsiya muhiti va xorijiy sarmoyalarni jalb etish omillari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 4, 45–52.
4. Shodmonov, M. (2021). Erkin iqtisodiy zonalar va ularning xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'siri. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 3, 23–30.
5. Xudoyberdiyev, B., & To'xtayev, N. (2023). O'zbekiston hududlarida xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi institutsional to'siqlar. *Ilmiy-amaliy jurnal "Biznes va Bozor"*, 6, 61–69.
6. Rasulov, A. (2020). Investitsiya faoliyatini hududlar kesimida baholash: tahlil va yechimlar. *Moliyaviy tadqiqotlar*, 2, 37–44.
7. Abdullayev, Q. (2024). Xorijiy investitsiyalar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik: O'zbekiston misolida. *TDIU ilmiy jurnali*, 1, 11–20.